



MO'G'ULLAR DAVLATINING O'RTA OSIYOGA ISTILOS I TARIXI

Akilov Baxtoja Daniyori o'g'li

CHDPU Tarix yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Email; akilovbaxa@gmail.com

Anontatsiya: Ushbu maqola O'rta Osiyo g'arbda Kaspiy dengizidan sharqda Xitoy chegaralarigacha, shimolda Sibirdan janubda Hindukushgacha bo'lgan ulkan hududdir. Tarixiy jihatdan u tsivilizatsiyalar, savdo yo'llari va migratsiyalarning chorrahasi bo'lgan. Mintaqa tarixidagi eng o'zgaruvchan davrlardan biri XIII-asrdan XIV-asrgacha davom etgan Mo'g'ullar imperiyasi davridir. Ushbu maqola mo'g'ullarning ushbu davrda O'rta Osiyoga ta'sirini o'rganish, ularning bosib olishlari, boshqaruvi va madaniy ta'siriga e'tibor qaratishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: Teb Tangriy, Chjundu (Pekin), lashkari berun, Joyi arzis, Qo'g'oshin nova, (Abeskun)

Annotation: This article Central Asia is a vast area stretching from the Caspian Sea in the west to the borders of China in the east, from Siberia in the north to the Hindu Kush in the south. Historically, it has been a crossroads of civilizations, trade routes and migrations. One of the most transformative periods in the region's history was the Mongol Empire, which lasted from the 13th to the 14th centuries. This article aims to examine the influence of the Mongols on Central Asia during this period, focusing on their conquests, administration, and cultural impact.

Key words: Teb Tangriy, Zhongdu (Beijing), lashkari berun, Joyi arzis, Goghoshin nova, (Abeskun)

Mo'g'ullar bosqini arafasida xorazm shohlar davlatidagi ichki vaziyat - qo'shin ning holati, aholining sultonga bo'lgan munosabati, saroydagi nizolar to'g'ri sida Q. Masharipov "Buyuk vatanparvar sarkarda" nomli asarida o'rta asr manba larida berilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar XIII-asr boshlarida O'rta Osiyoda o'zlarining harbiy istilolarini boshladilar. Ular tezda mintaqaning ko'p qismi, jumladan Xorazm imperiyasi, Xorazmshohlar sulolasi, Qoraxitoylar va Xitoydagi Jin sulolasining g'arbiy qismlarida o'z hukmronligini o'rnatdilar. Mo'g'ullar o'zlarining yuksak harbiy



taktikasi va qurol-yarog‘lari bilan qisqa vaqt ichida ulkan hududlarni egallashga muvaffaq bo‘ldilar

O‘rta asrlarning manbalarining ma‘lumotlariga ko‘ra, XII asr oxiri-XIII asr boshlarida mug‘ul qabilalari va elatlarining qudratli davlatga birlashuvi jarayonlari bo‘lib o‘tadi. Yozma manbalarda mug‘ullar menu(menva) nomi bilan ilk marotaba Xitoyning Tan sulolasi (618-908-y.y.) solnomasida tilga olinadi. 1206-yilning bahorida Mug‘ulistondagi Onon daryosi irmoqlaridan birining sohilida o‘z hokimiyatining to‘liq mustahkamlab olgan Temuchin mug‘ullarning umum qurultoyini chaqiradi. Temuchinning tarafdorlari – mug‘ul zodagonlari to‘plangan bu qurultoyda u oliy mug‘ul hukmdori – xon deb tantanali e‘lon qilinadi va davlatning bosh shamani Teb Tangriy unga “Chingizxon” degan faxriy nom beradi (“Chingizxon” – kuchli, buyuk degan ma‘noni anglatadi.)[1]

Chingizxon 1215 yilda sharqiy Xitoy markazi Chjundu (Pekin) shahrini zabt etgach o‘z nigohini G‘arbga yani madaniy, boyligi, buyukligi bilan shuhrat qozongan Xorazmshohlar davlatiga qaratadi.

Chingizxon 1219-yili o‘z o‘g‘illari Joji Chig‘otoy O‘qtoy va sodiq sarkardalari Subutoy va Jebe boshchiligida 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshoh Anushteginiylar davlati ustiga puxta tayyorgarlangan harbiy yurishni boshlaydi. Mo‘g‘ullar ko‘shinni 4 qismga bo‘lib, dastlab O‘tror 1219 yilda Qodirxon (Inalxon) qala noyibi edi 50 ming suvoriysi bor edi yana sulton Muhammad “lashkari berun” deb atalgan 50 ming askar yuboradi lekin ularga Qoracha hojib hiyonat qiladi va 5 oy davom etkan qamalni bosib oladi. Buxoroni bosib olish rejasi bo‘yicha harakat qiladi. 1220 yil fevralda Chingizxon Buxoroga yetib boradi shaharda 12 ming yana 20 ming “lashkari berun” askar mavjud edi ularga Ixtioryddin Ko‘shlu, Inonxon, Og‘ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, Go‘rxon lashkar boshi edi, qamal davomida Buxoro qozisi Badruddin Qozikalon taslim boladi 1220 yil 16 fevralda Mo‘g‘ullar shaharga kirib keladi, lekin shahar hali talim bolmagan edi Go‘rxon yana 12 kun mudofani ushlab turadi. Keyinchalik Samarqandga yol oladi, 1220 yil mart oyida yetib boradi u yerda 110 ming qoshin, ulardan 60 ming turk 50 ming tojik edi yana 20 ta fil bor edi. Shahar noyibi Sulton Mahammadning tog‘asi Tug‘ayxon edi, Chingizxon Samrqandni sabbt etish ushun Buxorodan olib kelgan asirlar va o‘g‘illari Chig‘atoy va O‘qtoylar O‘trordan olib kelgan asirlarni ham jangga kirgizdi. Va shahar



ostonasida uch kun shiddatli jang boldi uchinchu kuni mudofani yorib kirdilar va Xorazmshoh lashkarining lavangligi va qo'rqoqligi sababli 10 ming kishini qirib tashlaydilar so'ngra mo'g'ullar Samarqand ning bosh suv inshooti "Joyi arzis" va "Qo'g'oshin nova"sini buzib tashlab shaharni suvsiz qoldiradi shaharliklar majburan shaharni tashlab chiqib ketadi. 1220 yillarda Jo'ji boshchiligida Sig'noq, Jand, Binokat, Xojand, Naxshab, Termiz, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylar zabt etilgach Urganchga yetib keladi.

1221 yilda Urganchga shimol tamondan Jo'ji Buxoro tarafdan esa Chig'otoy va O'qtoylar bostirib kelib shaharni qamal qiladi, shaharliklar qamalga zo'r tayorlandi, mo'g'ullar shaharga manjaliq va palohmonlardan va ichiga neft solingan yonib turgan ko'zalarni otdi lekin taslim bolmadilar keyinchalik shahar hukumronligini qolga olgan va'daboz Xumortakin darvozani ochib beradi va mo'g'ullar shaharni bosib oladilar.[2] Xorazmshohlar davlati tashqaridan qanchalik qudratli bo'lmasin, aslida vaziyat ancha boshqacharoq edi, Muhammad Xorazmshoh qo'shini, soni garchi mo'g'ullar sonidan ko'p bo'lsa-da, bu qo'shinning tartib-intizomi ancha sust, ko'proq janubliklardan olingan yollanma qo'shin edi. Bu qo'shin esa mudofaaga emas, ko'proq istilo, talon-toroj, o'lja olish uchun mo'ljallangan. Aksincha, mo'g'ullar qo'shini esa puxta tayyorgarlik ko'rgan, qat'iy intizomli, katta jangga kirishish uchun tayyor holda edi.

1218-yildan munosabatlari o'nlab bo'lmas darajada buzilgan ikki imperiya o'rtasida qonli urushlar oqibati xorazmshohlar davlati uchun halokatli bo'lib chiqdi. Xorazmshohlar davlati shaharlari va qishloqlarini birin-ketin egallayotgan mo'g'ullar, Xorazmshoh Sulton Muhammadning ortidan quvib, Xurosonda uning izini yo'qotib, Ray shahri tomon o'tib ketadi. Ko'plab tarixchilar, jumladan, birinchilardan bo'lib V. Bartold Sulton Muhammadni Gurgon tarafdan borib Kaspiy dengizining janubi-sharqiy burchagidagi Ashurada (Abeskun) orolida yashiringanini ta'kidlaydilar. Bu orolda Xorazmshoh og'ir kasalga duchor bo'lib Jaloliddinni valiahd deb e'lon qiladi. Xorazmshoh Sulton Muhammad vafotidan so'ng paro kanda holatdagi davlatni dushmandan himoya qilish oson bo'lmadi. Xorazmshohlar saroyidagi fitna-fasodlar, qo'shinning katta qismini tashkil etadigan ko'chmanchi qang'li-qipchoq va o'g'uzlarning o'zaro adovatleri hamda viloyatlardagi amirlarning imkoniyatdan foydalanib mustaqillikka bo'lgan intilishi vaziyatni yanada og'ir



lashtirgan edi. Naqadar qiyin bo‘lmasin, Jaloliddin Manguberdining G‘aznada katta qo‘shin to‘plashi Chingiz xonni qattiqxavotirga soladi va bir necha marta unga qarshi qo‘shin jo‘natadi. qattiqxavotirga soladi va bir necha marta unga qarshi qo‘shin jo‘natadi. Shunga qaramasdan mo‘g‘ullar Xorazmshohlar davlatini tarix sahnasidan o‘chirib tashladi [3]

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o‘z o‘g‘illariga muluklarini ulus qilib bera boshladi, 1207 yilda katta o‘g‘iliga Selenga daryosidan Irtishgacha bo‘lgan yerlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o‘limidan sal oldin (1225 yil avgust) esa boshqa o‘g‘illariga ham bo‘lib berdi, shundan O‘rta Osiyo hududlari Chig‘otoyga tekkan edi u Movarounnahr noyib qilib Maxmud Yalavoch qilib tayinlanadi uning davrida soliqlar noto‘g‘ri yig‘ilganligi sababli maxali aholi noraziligi kelib chiqdi va uni ulug‘ Xoqqon O‘qtoy 1231 yilda pekinga noyib qilib yuboradi.[4]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘rta Osiyo mo‘g‘ullar davrida imperiyaning bosib olishi va hukmronligi natijasida sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ijobiy va salbiy tomonlarni boshidan kechirdi. Keng savdo tarmog‘ining o‘rnatilishi va yagona valyuta tizimining yaratilishi iqtisodiy o‘sishni ta‘minlandi va eng asosiysi islom dini saqlab qolindi bazi joylarda mo‘g‘ul no‘yonlari islom diniga otishi kuzatildi, mavjud infratuzilmaning tanazzulga uchrashi va yangi sinfiy tuzilmaning joriy etilishi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi va yana ko‘p shaharlar vayronaga aylantirildi. Shunga qaramay, mo‘g‘ullar davri mintaqaning madaniy xilma-xilligi va diniy jonlanishiga hissa qo‘shib, Markaziy Osiyoning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga doimiy ta‘sir ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bahodir Eshov. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi Toshkent- 2012 yil 198-199 bet.
2. Sadullayeva Mahfuza Husenovna. (2022). THE SIGNIFICANCE OF MNEMONIC TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF SPECIALIZED SCIENCES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 270–277.
3. A.P. Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asr boshlarigacha) Toshkent-2004 166- 182 bet.



4. Bekzod Abdiraimov. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha Sharq ma'rifati" nashr-matbaa uyi Toshkent – 2021 54- 61 bet.

5. O'zbekiston tarixi I kitob Toshkent <Donishmand Ziyosi> 2021 yil 535- 537 bet.